

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLATUNIVERSITETI**

**TARIX FAKULTETI “O’ZBEKISTON TARIXI”
KAFEDRASI**



KURS ISHI

1- BOSQICH O’ZBEKISTON TARIXI MAGISTRATURA YO’NALISHI

**FAN :“O’ZBEKISTONDA YER-SUV MUNOSABATLARI TARIXI
(QADIMGI DAVRDAN HOZIRGI KUNGACHA)”**

**MAVZU: XX asrning 20-30 yillarida O’zbekistonda amalga oshirilgan yer-
suv islohatlari va uning oqibatlari**

BAJARDI : DJUMANOV SANJARBEK

TEKSHIRDI : DOTS. R. XOLIQULOV

SAMARQAND--2012

**Mavzu: XX asrning 20-30 yillarida
O'zbekistonda amalga oshirilgan yer-
suv islohatlari va uning oqibatlari**

Reja:

Zarafon vohasida dehqonchilik
madaniyatining taraqqiyoti

XX asrning birinchi yarmida Zarafshon
vohasida agrar munosabatlar

O'zbekistonda amalga oshirilgan yer-suv
islohatlarining bosqichlari

Yer-suv islohatlarining amalga oshirilishi
va bu islohatning salbiy oqibatlari

Kirish

Mamlakatimiz tarixini o'rganish jarayonida hududimizda kechgan suronli voqea hodisalar turli tumanligi bilan xarakterlidir. Yurtimizda hukm surgan turli davlatlar hukmdorlari xalqqa, mol-mulkka, yer-suvga, madaniy ma'rifiy sohalarga turli munosabatda bo'lganlar va ularning o'ziga xos jihatlari turli xilda namoyon bo'ladi. Lekin ular qay tartibda hukmronlik qilmasinlar mohiyat bir xilligicha qolavergan ya'ni xalqni imkon qadar itoatda tutish, soliqlar to'plash, jamiyat hayotini barqaror tarzda rivojlanishini ta'minlash, turli obodonchilik ishlariga bosh-qosh bo'lish, ilm-ma'rifatga homiylik qilish va hokazo. Ammo yurt bosqinga uchragan, istibdod sirtmoqlari xalq bo'yniga solingan va mamlakat parokandalikka uchrab, xonavayron bo'lgan bir paytda yuqoridagi ezgu amallarni amalga oshirish haqida so'z ham bo'lishi mumkin emas edi. Shu sababli mamlakatimiz istiqloлга erishgan ilk kunlardan boshlab yurtimiz tarixini mukammal o'rganish, unda kechgan voqea hodisalarini bugungi kun nuqtai nazaridan xolisona yoritish va undan tegishli xulosalar chiqara bilishimiz lozimligi kun tartibiga qo'yildi. Mamlakatimizda kechgan yer-suv munosabatlari tarixini o'rganish va uni xolisona tahlil etish yurtimiz tarixini mukammal tarzda o'rganish imkoniyatlarini beradi. Ayniqsa yurtimizda hukm surgan so'nggi mustamlakachilik davri hisoblanmish mustabid sovet tuzumi o'zining g'ayriinsoniy va iqtisodiy qonuniyatlarga tamomila zid bo'lgan siyosati bilan yurtimizni talagan ozidan oldingi bosqinchilardan o'zib ketdi. Bu tuzum yurtimiz boyliklarini talagani holda mamlakatimizdagi asrlar mobaynida tarkib topgan yer-suv munosabatlarini o'z manfaatlariga to'la bo'ysundirib, mo'may daromad olishga intildi. Bu borada XX asrning 20-30 yillarida O'zbekistonda amalga oshirilgan yer-suv islohatlari va uning oqibatlarini haqida bilish va uni keragicha tahlil etish muhim ahamiyatga egadir. Zero yurtimiz iqtisodiyotini tanazzulga olib kelgan bunday g'ayriinsoniy siyosatning mohiyatini

bilish , uni anglash har bir yosh avlod ongida vatanni asrashga bo'lgan intilishni kuchaytiradi.

1. Zarafon vohasida dehqonchilik madaniyatining taraqqiyoti

Qadimdan Zarafshon vohasida dehqonchilik va dasht jamoalari o'zaro madaniy aloqada bo'lib kelishganligi ular yaratgan moddiy madaniyatda namoyon bo'lgan. Bu madaniy aloqalar keyingi tarixiy taraqqiyot bosqichlarida ham davom etgan. Xususan, dasht hududlarini o'zlashtirilishi va u bilan bog'liq sug'orish inshootlari qurilishi ham shu jarayonlarning tadrijiy davomi hisoblanadi.

Samarqand viloyatini suv bilan ta'minlovchi asosiy manba Zarafshon vohasidir. O'rta Zarafshon daryosining asosiy iste'molchilari Samarqand, Buxoro, Zarafshon okruglari bo'lib, 1926 -1927 yillarda 165 ta har xil kattalikdagi ariqlar shu daryodan suv olgan. Bu ariqlarning atrofidagi sug'oriladigan yerlar maydoni 100 gektardan 80 ming gektargacha bo'lgan.

Bu inshootlarning ta'mirlanishi katta kuch va xarajatlarni talab etgan, suv chiqarishning boshqarilishi qiyinligi, zamonaviy mukammal-lashtirilgan regulyator yo'qligi, suv umumiy massasining rayonlarga bo'lib byerilishida qiyinchilik tug'dirib, yer maydonlarining katta qismini qurib borishiga olib kelgan.

Mirzaariq magistral kanali Zarafshondan boshlanib 20 kub metr suv hajmiga ega bo'lgan. Mirza ariq Bulung'urga quyilgan va u yerda asosan sholi ekilgan. Magistral Payarig'i (hozirgi Payariq) Bulung'urdan boshlanib, Mirzoariqning davomi hisoblanadi va u 5 ta katta ariqqa bo'linadi.

To'qizariq bo'limi shart-sharoitiga ko'ra yuqoridagi ikkitasiga o'xshamaydi. Nomidan kelib aytish joizki, bu ariq 9 ta mustaqil kanallardan iborat. Ular suvni Oqdaryodan olgan. Bu

bo'limda suv etarlicha bo'lgan. Boshqa ekinlar ekish foydasizligi uchun sholi va boshqa ziravor o'simliklar, poliz ekinlari, oz miqdorda paxta ekilib, moy byeradigan o'simliklar ekilgan. Beda umuman o'smaydi.

O'sha davrning eng yirik suv xo'jaligi obekti bo'lgan Zarafshon daryosidagi Ravotxo'ja to'g'oni 1916 yilda qurilib bitkazilmagan eski to'g'on ustiga qayta qurilgan. I.I.Levi loyihasi bo'yicha qurilgan Ravotxo'ja to'g'oni suvni Zarafshondan sekundiga 1350 kub metr tezlikda suv o'tkazish kuchiga ega bo'lib, 1921 yilgi kuchli toshqin vaqtida sekundiga 900 kub metrli bo'lgan suv toshqinidan 1,5 barobar kuchliroqdir. To'g'on 1927-1929 yillarda qurilgan bo'lib, uning ochilishi 1930 yilning 2 mayida bo'lib o'tgan. U bir to'g'on va ikki regulyatordan iborat bo'lib ular daryoning ikkala qirg'og'i bo'ylab magistral kanallarni suv bilan ta'minlagan. Samarqand viloyatida sug'oriladigan yerlarning kattagina qismi shu to'g'on yordamida sug'orilib, suv taqsimlanishi idora qilingan.

Ravotxo'ja suv olish inshooti xizmatidan foydalangan rayonlar o'zining asosiy o'rni va vodiya yaqinligi bilan bu suvlarning eng asosiy iste'molchilari xisoblanadi.

1926 yilda mazkur rayonlar vodiyni ekin ekiladigan yer maydonlarining 34,5 % ga ega bo'lib, Zarafshon daryosining 42,7 % umumiy hajmdagi oqar suvlaridan foydalangan. Katta miqdordagi suvni vodiyni yuqori qismida sarflanishi Buxoro vohasiga suv taqsimlashni chegaralab qo'ygan. Shuning uchun bu yerda 1928 yilda sug'orishga mo'ljallangan 73143 gektar yerdan faqatgina 48031 gektar yer yoki 70 % yerlar ishlatilgan. Zarafshon daryosini sug'orish sistemasining ekspluatasion xarajatlari uncha katta bo'lmagan. 1925/1926 yillarda ular bir yarim million rublni yoki o'rta hisobda har bir xo'jalikka 7 rubl 49 tiyin, 1 gektar yerga esa 4 rubl 22 tiyin to'g'ri kelgan.

1926 yilda amalga oshirilgan yirik ishlar qatoriga 1925 yil oktyabrida qaytadan yo'lga qo'yilgan Xo'jand uezdining Nov rayonidagi Qurqat kanali ham kiradi. Kanalning bosh qismi qayta qurilib, unga regulyator moslamalari qurildi va tog'

cho'qqisidan o'tadigan 1017 metrli tunnel' qurildi. Qurqat kanalini qayta ta'mirlash uchun olib borilgan asosiy ishlar 1926 yilning 1 mayida tugallandi. Bu vaqtga kelib Samarqand suv xo'jaligi tomonidan yangi yerlarni o'zlashtirish va ekin ekiladigan dalalarga suvni o'z vaqtida etkazish uchun 1920330 rubl sarflangan bo'lib, shundan 285 ming rubl Qurqat kanali uchun ajratilgan.

1926 yili Samarqand suv okrugi bo'yicha Qoradaryo suv taqsimoti ostki to'g'oni qurib bitkazildi, Yangiariq, Qoratepa va Toshtepa soylari kesuvida

1926 yilda Samarqand uezdining Chelak qishlog'i atrofida 50 km hajmdagi suv taqsimoti tarmog'ini qamrab olgan To'rtko'l volostidagi Pay kanali, 34 ta suv chiqarish qurilmasi, 5 ta yangi inshootlar qurilishi to'la yakunlandi. Amalga oshirilgan ishlar natijasida 2000 gektar yangi yerlarga suv chiqarildi. Buning uchun 250 ming rubl' sarflandi. Angor, Yangi, Siyob, Polvon kanallari orqali 3000 gektar yangi yerlarni sug'orish uchun katta ta'mirlash ishlari olib borildi. Masalan 32 km.li Angor kanali qirg'oqlarida dambalar ko'tarilib mustahkamlandi, 20 ta yangi inshootlar, shular ichida 2 ta o'tish yo'li ham qurildi. Siyob kanalida qirg'oqlar, dambalar mustahkamlandi, 11 ta yangi suv chiqarish tarmoqlari qurildi.

akveduk (osma quvur) lar qurish ishlari olib borildi.

Davlat tomonidan 7000 rubl 10000 gektar yangi yerlarni loyihalash va tadqiqot ishlari uchun ajratildi. Samarqand shahridan 8 km uzoqlikda joylashgan Tollig'ulon suv dambasi qurilishi rejalashtirilgan. Bu inshoot 15 ming gektar yerni sug'orish kyerak bo'lib, Samarqanddan 25-40 km uzoqlikda joylashgan Polvon, Oq Sharshar, Sabaloq, Mitan, Qora,

Tuyatortar, Oq ko'l, To'g'iz, Qoraqat kanallarida beton suv chiqarish tarmog'i qurish rejalashtirilgan. Umumiy hajmda ular 6 ming gektar yerni sug'orish kerak edi. Mazkur kanallarda qurilish ishlari uchun 26840 rubl ajratilgan. Yuqorida aytib o'tilgan barcha qurilish ishlari 1920330 rublni tashkil etadi. Bu mablag'ning asosiy qismi davlat byudjeti hisobidan edi.

Suv inshootlari qurilishida hashar ishlari ham amalga oshirilgan bo'lib, 1924 yilda 800 ming rubllik, 1925 yilda tozalash va mayda ta'mirlash ishlari bo'yicha 941388 rubllik, 1926 yilda esa 947040 rubllik ish hajmi bajarildi

1921 yilning yanvarida Samarqand suv okrugi tuzilib, u viloyat suv xo'jaligi bo'limiga kiritilib, suv ta'minoti rahbariyati nisbatida 5 ta rayonga bo'lingan.



Birinchi rayon 3 ta bo'limdan iborat bo'lib, u boshqa rayonlardan birinchidan Zarafshon daryosining yuqori qismida joylashganligi bilan, ikkinchidan sug'oriladigan yerlarning kattagina qismi Hisor tog' tizmasida joylashganligi va buloqlar, soy suvlaridan foydalanganligi bilan farq qilgan. Bu rayonning Panjikent bo'limida ariqlar soni 35 ta bo'lib, 7 tasi Zarafshon daryosi suvidan foydalangan va shu bilan birga suvi etarlicha bo'lgani uchun bu yerlarda asosiy ekiladigan ekin sholi bo'lgan. Uchta magistral ariq Mug'on daryosidan suv olgan, lekin bu ariqlar tog' cho'qilari qirrasida va 15 sajin chuqur tunnellar bo'ylab oqishi bu ariqlardan sug'oriladigan yer maydoni juda ham kam bo'lib, atigi 450 desyatini tashkil qilgan. Rayonning Yuqori Yangiqozonariq bo'limi ikkita magistral ariqlarga ega bo'lib, Zarafshon daryosining chap qirg'og'idan boshlangan. Bu ariqlarga suv olish 1925 yilda natura va to'lov pul bilan to'lash hisobiga bo'lgan. Ariqning suv o'tkazish tezligi sekundiga 35 metr kub, Qozonariqqa sekundiga 20 kub metr to'g'ri kelgan. Yangi kanalning uzunligi 60 km bo'lib, uning oxirgi 15 km. qismi 1912 yilda qazilgan. Quyi Yangiariq bo'limi 25 chaqirim yerdan boshlab Qoratepa volostining 2 ta jamoasini suv bilan ta'minlagan.



Ikkinchi irrigatsiya rayonining eng asosiy suv yo'li Darg'om kanali bo'lib, u Jumabozor uchastkasi va Kulba qishlog'idan Zarsarning o'ng tomoniga va oxiri Qo'shquduq qishlog'i yonidagi Qayirma Damga borib taqaladi, taxminan 10-12 chaqirimi Kattaqo'rg'on uezdiga etib boradi. Kanalning uzunligi 125 chaqirim bo'lib, 45000 desyatina maydondagi yerlarni sug'oradi. Darg'om kanali Davul volostidagi Miyontov qishlog'ida ya'ni Tallig'ulon suv chiqarish havzasidan o'tib, Angor deb nomlanib tugaydi. Rayon ma'muriy suvchilik munosabatiga ko'ra 5 ta bo'limga bo'lingan.



Uchinchi rayon o'zining irrigatsion xususiyati bilan ikkita teng bo'lmagan qismga bo'linadi: ichki tarmoqli Siyob bo'limi bo'lib uning asosiy suv manbai Darg'om kanalining oqar suvlari va buloqlardir. Chorjo'y, Jo'yi Devona, Yangi Qo'rg'on bo'limlari Oqdaryo va Qoradaryodan suv olgan. Siyob bo'limi uzum-bog' dorchilik, Miyonkol esa paxta, sholi ekiladigan hududlar bo'lgan.



To'rtinchi rayon tasarrufiga volostlarni sug'orayotgan Zarafshon daryosining o'ng qismida joylashgan 9 ta kanallar kiradi. Bulardan biri Tuyatortar magistral kanalidan o'rtacha 40 kub metr suv oqib, 3 ta bo'linmalarni va Jizzax uezdining O'smat volostidagi dehqonlar uyushmasi yerlarini sug'organ.



Beshinchi rayon o'zining irrigatsion sharoiti turli xil bo'lgan 3 ta bo'limdan iborat bo'lgan. Bular Mirzaariq, Payariq va To'g'izariq bo'limlaridir.

**XX asrning birinchi yarmida
Zarafshon vohasida agrar
munosabatlar**

Yer-suv islohoti davrida “Qo’shchi” ittifoqlarining birlamchi vazifasi meliorativ shirkatlarni rivojlantirish va mustahkamlashdan iborat bo’ldi. Turkiston ASSRda meliorativ shirkatlari 1923 yildan tashkil qilina

boshlangan bo’lib, lekin ularning soni oz miqdorda edi. 1924 yilda 9 ta meliorativ shirkatlari tashkil qilingan bo’lib, ulardan 2 tasi Samarqand viloyatida faoliyat ko’rsatgan.

1925 yilda qishloq xo’jaligini rivojlantirish uchun O’zbekiston suv xo’jaligi tomonidan meliorativ ishlar uchun 200 ming rubl ajratilib, ular sug’orish sistemasini rivojlantirib borish uchun ishlatilgan. “Qo’shchi” ittifoqining ishtirokida 1925 yil oxirigacha Respublikada 52 ta meliorativ shirkatlar tuzilgan bo’lsa, 1926 yilning 1mayiga kelib 118 ta meliorativ shirkatlar faoliyat olib borgan. Shu yilning 15 iyuliga kelib faqatgina Samarqand viloyatida 29 ta meliorativ shirkatlar tuzilib, ularga 10 mingta dehqon xo’jaliklari birlashgan. Meliorativ shirkatlarning uездlar bo’yicha bo’linishi Samarqand uездida - 18 ta, Xo’jandda-5 ta, Jizzaxda-1 ta, Kattaqo’rg’onda-1 ta, O’ratepada-1 ta bo’lgan .

Meliorasiya jamg’armasining ajratilgan maxsus mablag’idan tashqari 1929 yilda Samarqandning 29 ta meliorativ shirkatlariga yer-suv islohotiga ajratilgan ssudalardan 90 ming

Samarqand viloyati irrigasiya inshootlaridan yana biri Kattaqo’rg’on suv omboridir. Kattaqo’rg’on shahri yaqindagi tabiiy suv havzasida yer to’g’oni qurilishi ishlari 1940 yilning bahor va yoz oylarida olib borilib paxta yig’im-tyerimigacha davom etdi. Bu qurilishda Samarqand viloyatining 19 rayoni, Buxoro viloyatining 21 rayoni mehnatkashlari ishtirok etishib har kuni o’rtacha 14 ming kishi, ba’zan esa 106 minggacha ishchi qatnashdi.

rubl byerilgan bo'lib, ular rejalashtirilgan yangi yerlarni sug'orish uchun sarflangan. Viloyat suv xo'jaligi Respublika davlat byudjetidan 516 ming rubl oldi va Angor, Siyob, Yangi, Pay, Polvon kanallaridan 5000 gektar yerlar sug'oriladigan bo'ldi. 1926 yil aprelida Respublika Markaziy Komiteti buyrug'i bilan 15 ming rubl pul O'zbekiston suv xo'jaligi jamg'armasidan, 3000 rubl esa Samarqand viloyati ijroiya qo'mitasi tomonidan Eski Tuyatortar kanalini tuzatish ishlari uchun ajratildi. Bu ishlar muvaffaqiyat bilan yakunlanib, kanal suvini o'tkazish kuchi sekundiga 4,5 kubometrga etdi va kanal Jizzax uezdini suv bilan ta'minlay boshladi.

To'g'onga 7,3 mln. kub metr shag'al to'kildi va bundan tashqari 4 mln.kub metr qazuv ishlari amalga oshirildi. Qurilayotgan to'g'on balandligi 13.5 metrga ko'tarildi, bu esa o'z navbatida 120 mln.kub metr suvni yig'ish imkonini byerdi.

Suv ombori loyihasini O'rta Osiyo suv ishlab chiqarish (Sazvodproiz) tashkiloti xodimlari N.G.Borodinskiy, V.N.Gladey va I.D.Lebedevlar ishlab chiqishgan. Qurilish ishlarini I.G.Burdiashvili, S.K.Kalujnyuk, Sh.Ch.Aytmetov, V.F.Shpotinlar boshqardi. Suv omborining qurilib ishga tushirilishi natijasida Samarqand va Buxoro viloyatlarida 60 ming gektar yerni sug'orish imkonini byerdi.

Katta Farg'ona kanali qurilishi davom etayotgan bir vaqtda Samarqand viloyat mehnatkashlari ham o'n kun ichida uzunligi 43 km bo'lgan Zarafshon kanali qurilishi ishlarini amalga oshirdi.

Xullas, XX asrning birinchi yarmida Zarafshon vohasi miqyosida qurilgan irrigasiya inshootlari yangi dehqonchilik vohalari yuzaga kelishiga olib kelgan. Bu esa shu hudud aholisi kundalik turmush tarzi, mashg'uloti mazmuniga ta'sir etib, o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiyotni shakllantirgan.

Qurolli qarshilik ko'rsatish xarakatining avj olishi, iqtisodiy va siyosiy vaziyatni ogirlashishi 20 yillarning boshlariga kelib bolsheviklarni isloxatlarini boshlashga majbur qildi. Bu yo'nalishdagi dastlabki xarakatlar 1920 yilning sentyabridan yetiboran amalga oshirila boshlagan yer-suv isloxatida o'z aksini topdi. Bolsheviklar fikricha isloxatdan ko'zlangan asosiy maqsad maxalliy axoli va boy rus dexqonlarining yer va suvga bo'lgan xuquqlarini tenglashtirish edi. Shu yo'l bilan ular maxalliy dexqonlarni o'z tomonlariga tortmoqchi bo'ldilar. Xaqiqatdan xam 1921-22 yillar davomida boy rus dexqonlarga tegishli bo'lgan yerlar musodara qilindi, o'lka xududlarda yashayotgan xam yerli va yersiz dexqonlar yer bilan tamirlandi. Isloxat davomida boy, cho'loq dexqonlar xo'jaliklari tugatildi va ko'chmanchilarni o'troq xayotga o'tkazishga ko'rsatilgan tadbirlar amalga oshirildi. Lekin vaqt o'tkan sari ana shu umuman olganda ijobiy bo'lgan tadbirlar bo'lgan qatori maxalliy sharoit milliy mentalitet xisobga olinmagan choralar xam ko'rildi. Bu choralar vaqf yerlarini musodora qilish, maxalliy axolining «mexnat bilan shugillanmaydigan yuqori qatlamlari» degan vakillarining yerlarini musodora qilish yoki kamaytirishdan iborat bo'ldi.

Maxalliy sharoit ayniqsa diniy xis tuygularni nazar pisand qilmaslik, qishloqdagi siyosiy vaziyatni keskinlashtirdi va sinfiy ziddiyatlarni kuchaytirdi.

Ko'chmanchilarni o'troqlashtirishning bolshevikcha zo'rovonlik usullari bilan amalga oshirishi salbiy oqibatlariga olib keldi. Natijada ijtimoiy, sinfiy millatlararo ziddiyatlar kuchaydi. Isloxat mamlakat iqtisodiy va siyosiy xayotidagi tanglikka xam barxam byera olmas edi. Tanglikdan chiqish uchun o'lkada keng qamrovli o'zgarishlarni amalga oshirish zarur edi. Bunday o'zgarishlarni amalga oshirish zarur yekanligini markaz xam anglab yetdi. 1921 yildan yetiboran amalga oshirilgan isloxatlar yangi iqtisodiy siyosiy deb nomlandi, unga ko'ra «xarbiy

komunizm» siyosatini moxiyatan belgilab byergan oziq-ovqat razvyortkasidan voz kechildi va uning o'rniga oziq-ovqat soligi joriy qilindi. Natijada qishloq xo'jaligida davlat nazorati ostida bo'lsada, iqtisodiy qonuniyatlarning amal qilinishi tiklana boshlandi. O'sha 1921 yilning o'zidayoq xosildorlik keskin ko'tarildi, ochlik chekindi va bozor jonlana boshlandi. Oziq-ovqat soligining joriy qilinishi bilan birgalikda davlat dexqonlarga agrotexnik va moliyaviy yordam byera boshlaganligi, vaziyatni yanada yaxshilashga yordam byerdi. Sanoat soxasida yangi iqtisodiy-siyosat davlatga tegishli bo'lgan mayda va o'rta korxonalarning tadbirkorlarga ijaraga berishida jismoniy shaxslarga yangi korxonalar ochishga ruxsat berishdi, yirik korxonalarning xo'jalik xisobiga o'tkazishda namoyon bo'ldi. Davlat ixtiyorida Turkiston bo'yicha 99 tagina korxona qoldirilib, ular xam bozor qoidalariga amal qilgan xolda faoliyat ko'rsata boshladilar.

Yangi iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismi sifatida pul isloxati o'tkazilib yagona pul tizimi joriy qilindi. Rubl bir yilning ichida konvyertasiya qilinadigan valyutaga aylandi.

Ko'rilgan choralar 1921 yilning o'zidayoq o'z natijasini byera boshladi. 1921 yilning oxirida o'sha yilning yanvariga nisbatan Toshkent mexanika zavodida ishlab chiqarilgan maxsulot 16 barobar ko'paydi. 1924-25 xo'jalik yiliga kelib Turkiston sanoatining yalpi maxsuloti urushdan oldingi darajaning 79,4%ini tashqil qildi. Yangi iqtisodiy-siyosatga o'tilgach sanoat ishlab chiqarishning yillik o'sishi suratlari 16-18%ni tashkil qila boshladi.

Kollektivlashtirish siyosati V.I.Lenin ilgari surgan sosializm

qurish
rejasinin
g
tarkibiy
qismidir.
Taniqli

Qashqadaryo vohasida er-suv islohoti davomida jami bo'lib 989 xo'jalik batamom yo'q qilindi. Shundan 339 tasi boylarniki, 195 amir, amaldorlariniki, 174 tasi ruhoniylarniki, 53 tasi savdogarlarniki, 41 tasi sudxo'rlarniki bo'lgan. Bu xo'jaliklarning yo'q qilinishi oqi-batida 12556 tanob sug'oriladigan, 5290 tanob lalmikor yerlar, 1001 ot, 1194 ho'kiz, 274 tuya tortib olindi.

tarixchi olimi Rahima Aminova kollektivlashtirishga baho byerib bunday degan edi: «Kollektivlashtirish -ishlab chiqarishga davlat monopoliyasi o'rnatilishining naq o'zginasidir. Partiyaviy-g'oyaviy siyosat hukmronligi tufayli yuzaga kelgan kollektivlashtirish nazariyasi va tajribasi bugunga kelib chilparchin bo'ldi. Kishining ishlab chiqarishdagi mehnatiga haq to'lov o'zaro tenglik asosiga qurilganidan bu siyosat o'zini oqlamadi. Tabiiyki, moddiy manfaatdorlik bo'lmagan joyda tashabbuslar ham so'nadi. Tashabbus, izlanish bo'lmagan joyda yesa, ish orqaga ketadi. Buning ustiga hayotning o'zi kollektivlashtirish muommosini ko'tarib chiqmagan edi. Nazazariyas'hilar asrlar osha shakllanib kelgan ishlab chiqarish usullariga bepisand qaradilar. Zo'ravonlik bilan o'tkazilgan siyosat ko'plab ishbilarmon, tadbirkor odamlarning ishga, yerga bo'lgan munosabatini sovitdi. Ye'tirof yetmoq joizki, bugungi dasturxonimizning g'aribligi ham, ko'r jihatdan qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish «samarasidir».

Sovet hukumati va kompartiya mustamlaka asoratidagi o'lka xalqlarini qul o'rnida ishlatib hisobsiz foyda va daromad olishning yeng maqbul shakli bo'lgan kollektivlashtirish siyosatini amalga oshirish uchun ayyorlik va ustamonlik bilan uzoq tayyorgarlik ishlarini olib bordi. Bu borada amalga oshirilgan yer-suv islohoti muhim o'rin tutadi.

1920-
yillarda

Yer-suv islohatlari jarayonida

1921-

Yer-suv islohoti davrida ko'chirib yuborilgan oilalardan 250 ming botmondan ortiq don tortib olindi va shundan atigi 12.8 ming botmoni mahalliu kambag'al batraklarga bo'lib berildi.

Yer-suv islohotining 1925-1929-yillarda o'tkazilgan O'zbekiston SSR markaziy Ijroiya Qo'mitasining 1925-yil, 2-dekabrda «Er va suvni nasionalizasiya qilish», «Er-suv islohoti» to'g'risidagi dek-retiga asosan amalga oshirildi.

O'tkazilgan islohot davomida faqat Toshkent, Farg'ona, Samarqand va Zarafshon viloyatlarida 254.2 ming desyatina er jamg'armasi hosil bo'ldi. Yu yerlarning 70 foizi «boylar» deb hisoblangan o'rtahol dehqonlardan tortib olingan edi. Ana shu o'rtahol dehqonlar 1918-1922-yillarda sovetlardan er olib, o'z xo'jaliklarini tiklab olgan edilar.

o'tkazilgan yer-suv islohotining asosiy maqsadlaridan biri, o'lkaga ko'chirib keltirilgan rus zamindorlarining yerlarini mahalliy dehqonlarning yerlari bilan tenglashtirish edi. Chunki bu rus kelgindi mujiklari Chor ma'murlaridan juda katta hajmdagi syerunum yaxshi yerlarni olgan edilar. Sovet hukumati bu bilan o'zini go'yo mahalliy mehnatkash xalqning «g'amxo'ri» va «mehriboni» qilib ko'rsatmoqchi bo'lgan edi. O'lkada yer-suv islohoti sovet hukumatining («Yer to'g'risid») gi dekreti asosida amalga oshirildi va uning bosh maqsadi qishloqda sinfiy tabaqalanishni kuchaytirishdan iborat edi. Sovet va kompartiya korchalonlari bu yerda ham «bo'lib tashla, hokimlik qil») qabilida ish yuritdilar, qishloq aholisini boy va kambag'allarga bo'lib ularning sopini o'zidan chiqarib bir-birlariga qarshi gijgijladilar. 1921-yilda tashkil etilgan «Qo'shchi» ittifoqi xuddi ana shu maqsadda tuzildi. 20-yillarning o'rtalaridayoq uning saflarida 160 ming nafarga yaqin a'zo bor edi. Vu ittifoqqa asosan Yersiz va kam yerli kambag'al dehqonlar uyushar edi. Uning faoliyati bolsheviklar tomonidan boshqarilar edi. «Qo'shchi» ittifoqi boylar va ruhoniylarning yerlarini tortib olib, yersiz va kam yerli dehqonlarga bo'lib byerardi. 1921-1922-yillarda o'tkazilgan yer-suv islohoti natijasida Sirdaryo, Farg'ona, Yettisuv viloyatlari, Turkman viloyatining Marv uyezdida 1.722.626 desyatini yer musodara qilindi. Ana shu yerlardan 117.512 desyatini yersiz va kam yerli o'zbek dehqonlariga byerildi va 3 ming xo'jalik tashkil yetildi. Dehqonlarga yer bilan birgalikda 1.517 ot, 87 tuya, 1042 sigir va 133 yeshaklar ham taqsimlab byerildi. Bundan tashqari qishloq kambag'allariga mehnat qurollari ham ulashildi.

Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm va Qoraqalpog'iston viloyatlarida yer-suv islohoti 1928-1929-yillarda o'tkazildi. 1924-yil, 1-noyabrda tashkil etilgan Qashqadaryo viloyatida yer-suv islohoti 1929-yil bahorida yakun topdi. Bu o'tkazilgan tadbir natijasida katta yer yegalari yo'q qilindi, amirlikning katta amaldorlari va savdogarlari xo'jaliklari tugatildi.

Ayni paytda sovet hukumati o'z yerida halol mehnati bilan


kun ko'radigan dehqon xo'jaliklarni ham islohot girdobiga tortib quloqlarga aylantirgan, ularning yer-suvi, ot-ulovi va bor-bisotidan mahrum yetgan edi.

Qashqadaryo viloyatida ko'rsatilgan sabablarga ko'ra musodara etilgan yerlar 17.906 tanob sug'oriladigan va 7.315 tanob lalmikor zamindan iborat bo'lib, jami 25311,23 tanobni tashkil yetgan edi.

Yer-suv islohoti 1929-yilda o'tkazilgan Qoraqalpog'istonda 300 dan ortiq yarim zamindor yer yegalarining xo'jaliklari musodara qilindi. 5000 dan ortiq boylarning yerlari tortib olindi. Xorazm okrugida 458 xo'jalik, Farg'ona okrugida 1541 xo'jalik tugatildi. Jami bo'lib butun O'zbekiston bo'yicha o'tkazilgan yer-suv islohoti natijasida 4801 ta xo'jalik quloq xo'jaligi sifatida tugatildi, 23036 xo'jalikning ortiqcha yerlari tortib olindi, yer jamg'armasiga 474393 desyatina yer qo'shildi. U yerlar bilan birga ot-ulov va asbob-uskunalar ham musodara qilingan edi.

Mamlakatda yer-suv islohotini amalga oshirish ishlari bilan viloyat, okrug va tumanlar yer komissiyalari shug'ullandilar. Ularga yordam berish us'hun qishloqlarda yordamchi komissiyalar tuzildi.

Xullas O'zbekistonda amalga oshirilgan yer-suv islohoti natijasida respublika qishloq aholisining tarkibida bir qator jiddiy o'zgarishlar bo'ldi, Kambag'al dehqonlar kamayib o'rtahol dehqonlar salmog'i ortdi. Jumladan yer-suv islohotiga qadar kambag'al dehqonlar guruhi barcha dehqonlarning 76 foiziga teng edi. yer-suv islohotidan keyin esa, ularning salmog'i 30 foizga qisqardi va aksins'ha o'rtahol dehqonlarning salmog'i 17 foizdan 52 foizga ortdi.



«Oktabrning o'n yillik bayrami nishonlanish arafasida O'rta Osiyo Byurosining «Za partiyu» nashri 1927-yil, sentabr sonida, kambag'al turkistonliklarning o'zlariga bo'lib byerilgan tomorqalarni avvalgi yegalariga o'z xoxishlari bilan qaytarib berishgani haqidagi bir qancha hodisalarni keltirgan. Hatto, yerlarni zo'rlik bilan mahalliy hokimiyat tazyiqida bo'lib berish hollari ham yuz byergan.

«Pravdo Voctoka» gazetasi 1928-yil, 2-sentabr sonida quyidagi juda bir qiziq rasmiy ma'lumotni byergan edi: «Boylarning o'zboshimchalik bilan o'z yerlarni tortib olish hollari sodir bo'lgan. Bunaqa hodisalar, auniqsa Samarqand va Buxoro viloyatlarida ko'p takrorlanmoqda. ... o'z xohishlari bilan yer olishdan voz kechayotganlar ham uchrab turibdi. U yoki bu shaklda boylarning yerlarini tortib olishga uo'l qo'ygan yoki qo'l qo'ylshayotgan ba'zi qishloq va rayon ijroiya qo'mltalari xodimlriga qarshi biz qattiq choralar ko'rishimiz zarur». O'zbekistonda yer-suv islohoti o'tkazilishi davrida kompartiya va sovetlarning agrar siyosatiga qarshi norozilik harakati keng tus oldi. Natto tyerors'hilik keng tus olgan. Faqat 1928-yilning o'zida O'zbekistonda 218, 1929-yilda 429, 1930-yil, yanvar-aprelida 106 jami 653 tyerrorchilik hodisalari yuz bergan.

Yer-suv islohoti

Azaldan sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik ma-

daniyati maskani hisoblangan hamda aholisining mutlaq ko'pchiligi qishloq xo'jaligida band bolgan Turkiston xalqlari uchun yer-suv, undan foydalanish masalasi favqulodda ahamiyat kasb etardi. Negaki, o'lka aholisining anchagina qismi yersiz edi. Bir parcha yerga muhtoj bo'lganlar boylar, yirik zamindorlarning mulkida chorakorlik bilan nochor hayot kechirib, oila tebratib kelardi. Buning ustiga chor Rossiyasi bosqinidan so'ng ko'plab serhosil, unumdor yerlar Rossiya-dan ko'chirib kelingan oilalar foydasiga majburan olib berilgan edi. Turkiston qishlog'idagi bu zo'ravonlik, mustamlakachilik siyosati yersiz, batrak dehqonlarning ahvolini tanglashtirib yuborgan edi. Shu bois ham mahalliy yerli aholi yangi sovet hokimiyatining «Yer — dehqonlarga» degan balandparvoz va'dalari, da'vatlariga umid bog'lab, uning yer to'g'risidagi dekretining amalga oshuviga ko'z tikib kelayotgandi. Darhaqiqat, sovet hokimiyatining 1917-yil 25-oktabrda qabul qilgan «Yer to'g'risida»gi dekretida butun mamlakatda kambag'al, batrak, yersiz dehqonlarni yer bilan ta'minlash, yirik yer-mulklarni musodara qilish va undan so'ng milliylashtirish vazifalari e'lon qilingan edi.

Sovet hukumati ko'p sonli dehqon aholisini o'z tomoniga qaratib olishni ko'zlab yer to'g'risidagi dekretni qabul qilgan bo'lsa-da, ammo uni amalga oshirishdan kuzatilgan va uzoqqa mo'ljallangan maqsadlari boshqa edi. Sovetlarning yer-suv islohoti masalasida tutgan siyosatining pirovard maqsadi yirik xususiy yer-mulklarni musodara qilish, milliylashtirish orqali ularni tugatib, jamoalar ixtiyoriga bera borib, asta-sekinlik bilan yirik jamoalashgan sotsialistik

xo'jaliklarni qaror toptirish edi. Turkistonda ham mana shu prinsipial maqsadlarni ko'zlab yer-suv islohotini o'tkazishga kirishildi.

— Turkiston Sovetlarining XI syezdida (1920-yil sentabr) o'lkada yer-suv islohoti masalasi ko'rib chiqildi, bu sohadagi asosiy vazifalar belgilandi. Bunga ko'ra aholining boy qismi qo'lidagi katta yerlarni musodara qilish, ovrupalik aholi bilan yerli xalqlar o'rtasida yer-suv masalasida vujudga kelgan tengsizlik munosabatlariga barham berish, mehnatkash aholini sovetlar tevaragiga jipslashtirish zarur deb topildi. Yer ishlari xalq komissarligi rejasiga ko'ra tortib olingan yerlar kam yerli va yersiz mahalliy batrak va dehqonlarga bo'lib berilishi aytilgandi. Bu jarayon boy xo'jaliklarga ma'muriy choralar va tazyiq o'tkazish yo'li bilan olib borildi. Bu xil tadbirlarga batrak-dehqonlar ommasi ham keng jalb etildi. Shu maqsadda joylarda qishloq va ovullar mahalliy aholisining yersiz, kambag'al qismini birlashtiruvchi «Qo'shchi» uyushmalari tuzila boshladi. «Qo'shchi» uyushmalari kommunistlarning dehqonlar orasidagi tayanchiga aylanib bordi. Turkiston ASSR hududida 1921-yil davomida tuzilgan «Qo'shchi» uyushmalari 160 ming a'zolarni birlashtirgan edi.

— 1921-yil dekabrda Toshkentda «Qo'shchi» uyushmalarining birinchi respublika qurultoyi bo'lib o'tdi. Qurultoy qarorida, jumladan, «bu uyushmalar mehnatkashlar ommasini sovetlar yordamida xo'jalik qurilishiga tortish vositasidir» — deb uqtirilgan edi.

Shunday qilib, Turkistonda — 1921—1922-yillar davomida yer-suv islohotining birinchi bosqichi yirik yer-suv egalariga qarshi keskin kurash shiori ostida o'tkazildi. Masalan, Samarqand viloyatida 350 ta katta yer egalaridan 13 ming desyatina yerlar tortib olindi. Respublika bo'yicha boy va o'ziga to'q aholidan 1,7 mln desyatina yer tortib olindi, ularning 117 ming desyatini yersizlarga va kambag'allarga berildi, qolgan katta qismi asosida «Qo'shchi» uyushmalari tuzildi. Bu sovet hokimiyatining kambag'allarni o'z tomoniga og'dirib olishga qaratilgan harakati edi. O'rtahol dehqon xo'jaliklari saqlab qolindi.

Xulosa qilib aytganda, yer-suv islohotining birinchi

bosqichi yakunida dehqon xo'jaliklarini jamoalash-tirish uchun zamin yaratildi. Endilikda mehnatkash xalqni birdan bir yagona yo'l — jamoa xo'jaliklariga majburan birlashish masalasi ko'ndalang bo'lib turar-di. Ammo, bu aslida oddiy xalqni aldashdan boshqa narsa emas edi. Chunki, yer dehqonga berilmadi, balki bir mulk shaklidan ikkinchi mulk shakliga aylantirildi, xolos. Gap shundaki, garchi yerga xususiy mulkchilik tugatilgan bo'lsa-da, u jamoa (amalda davlat) mulki bo'lib qoldi.

**Yer-suv islohotining
ikkinchi bosqichi**

O'zbekiston SSR tuzilgan paytda ham respublikada sovetchasiga agrar siyosatni

amalga oshirish to'la hal etilmagan edi. 1925-yil boshida Farg'ona viloyatida umuman yersiz dehqon-lar 3,4 foizni, 3 desyatinagacha yeri bor xo'jaliklar 83,1 foizni tashkil etardi. Samarqand viloyatida bu ko'rsatkich mos ravishda 2,1 va 51,5 foizga teng edi. Toshkent viloyatida esa yersiz dehqonlar 12,5 foizni tashkil etardi. O'zbekistonning asosiy paxtakor viloyat va tumanlarida yerning katta qismi yangi iqtisodiy siyosat asosida xo'jalik yuritayotgan o'rtahol dehqon-lar qo'lida to'plangan edi. Ular respublikada yetishti-rilayotgan paxta, g'alla va boshqa qishloq xo'jalik mahsulotlarining asosiy qismini yetkazib berar edi. Kambag'al dehqonlar esa yerni ulardan ijaraga olib ishlashardi. O'zbekiston Kompartiyasining II syezdida (1925-yil noyabr) bu hol feodal munosabatlarning qoldig'i deb baholandi va xususiy mulkchilik munosa-batlarini sotsialistik iqtisodiyot ta'siriga bo'ysundirili-shi kerakligi ta'kidlandi. Shundan so'ng O'zKP(b) Markaziy Qo'mitasi Ijroiya byurosida, viloyat, shahar, tuman partiya va sovet tashkilotlarida yer-suv isloho-tining ikkinchi bosqichini o'tkazish masalasi bir necha bor muhokama qilindi va uning nihoyatda dolzarblig-i-ga e'tibor qaratildi. Joylarda yer-mulklarni qaytadan ro'yxatdan o'tkazish boshlab yuborildi. Bu ish birinchi navbatda asosiy dehqonchilik muzofotlari hisoblangan Toshkent, Farg'ona, Samarqand viloyatlarida bosh-landi. Yer-suv islohotining mazmuni dastavval quyi-dagi muammolarni hal etishga qaratildi:

Qishloqda jamoalash- tirish sari yo'l tutish

Sovetlar hokimiyatining o'tgan asrning 20—30-yillarida amalga oshirgan ma'muriy-buyruqbozlik va zo'ravonlik siyosatining yorqin ifodasi qishloqda o'tkazilgan jamoalashtirish jarayonida namoyon bo'ldi.

Necha asrlar davomida individual xo'jalik yuritib kelgan, ongi, shuurida xususiy mulkchilik hissiyoti kuchli bo'lgan, mulk daxlsizligi tushunchasini muqaddas bilgan millionlab dehqon xonadonlarini ularning xohish-irodasiga qaramasdan, majburiy tarzda yirik jamoa xo'jaliklariga olib o'tish bu hazilakam jo'n, oson ko'chadigan ish emas edi. Sovet hokimiyati, hukmron partiya ijtimoiy taraqqiyotning borishi, uning tabiiy qonuniyatlariga zid o'laroq bu jarayonni qisqa muddatlar ichida zo'ravonlik va majburiylik yo'li bilan o'tkazish sari yo'l tutdi. VKP(b) XV syezdi (1927-yil dekabr) belgilab bergan qishloqda yoppasiga jamoalashtirishni amalga oshirish siyosati bunga to'la asos qilib olindi.

Butun SSSR hududida bo'lgani singari O'zbekistonda ham bu ishga faol, yeng shimarib kirishildi. Negaki, yuqoridan belgilangan har qanday amr-u farmon va ko'rsatmalar bu yerda ham so'zsiz hayotga joriy etilishi majburiy hisoblanardi. Buning uchun tegishli shart-sharoit va imkoniyatlar bormi, yo'qligi yoxud mahalliy aholining bu tadbirlarni bajarishga tayyorgarligi qay darajada ekanligi e'tiborga olinmasdi.

Xo'sh, O'zbekiston qishloq xo'jaligining 20-yillar manzarasi qanday edi? Uning qishloq aholisining sinfiy, tabaqaviy tarkibidagi o'zgarishlar nimadan dalolat berardi?

20-yillarda o'tkazilgan yer-suv islohoti davrida badavlat dehqonlarning yerlari, vaqf yerlari, ruhoniylarga tegishli yerlar davlat tomonidan tortib olingan edi. Yer bilan birga hamma ot-ulov va asbob-uskunalar ham musodara qilindi. Umuman, 1925—1929-yillar ichida boylar, yirik savdogarlar va ruhoniylarning 45

mingga yaqin xususiy xo'jaliklari batamom tugatildi. Ko'pgina xo'jaliklar tasarrufidagi ortiqcha yerlar ham tortib olingan edi. Bu yerlar qayta taqsimlanib, ularning bir qismi yersiz yoki kam yerli dehqon xo'jaliklariga mulk qilib berildi. Buning natijasida batrak-kambag'allar toifasi islohotdan oldin barcha dehqonlarning 76 foizini tashkil etgan bo'lsa, islohotdan so'ng ularning soni 39 foizgacha qisqardi. Ularning xo'jalik turmushi yaxshilanib, o'sib borganligi bois o'rtahol dehqonlar salmog'i 17 foizdan 52 foizga ko'tarildi. Shu tariqa, qishloqda tovar-g'alla yetishtiruvchi mayda ishlab chiqaruvchilarning salmog'i ko'payib bordi. Bu islohot jarayoni davomida respublikada jamoa xo'jaliklari, ya'ni kolxozlar tashkil etildi. Biroq ularning hali xo'jalik va moliyaviy zaifligi, ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining pastligi ko'zga tashlanib turardi.

Sovet hokimiyatining 20-yillarda qishloqda yuritgan bir qadar mo'tadil siyosatidan bahra olib, yer-suv islohotidan naf topib, o'z xo'jaliklarini anchayin oyoqqa turgizib, o'rtahollar darajasiga ko'tarilib olgan o'zbek dehqonlari hayoti va qismati, taassufki, tez orada hukmron partiya boshlab yuborgan ommaviy jamoalashtirish jarayoni girdobiga g'arq bo'ldi.

Ommaviy jamoalashtirish va uning oqibatlari

Qishloqda yalpisiga jamoalashtirish siyosatini izchil amalga oshirish uchun O'zbekistondagi partiya, sovet,

xo'jalik, yoshlar, xotin-qizlar va boshqa jamoat tashkilotlari to'la safarbar qilindi. Markaz buyrug'i va dasturulamal ko'rsatmasini quloq qoqmay bajarishni o'zlari uchun katta ishonch yorlig'i deb bilgan, unga ko'r-ko'rona asoslangan mahalliy rahbarlar dehqonlarni zudlik bilan kolxozlarga majburan kiritishni 1929-yilning ikkinchi yarmi va 1930-yil boshlarida avj oldirib yubordilar. Masalan, O'zbekiston partiya va hukumatining 1930-yil 17-fevraldagi «Jamoalashtirish va quloq xo'jaliklarini tugatish to'g'risida»gi qarorida respublikaning 17 ta tumanida yoppasiga jamoalashtirishni amalga oshirish vazifasi belgilangan edi. Ko'p joylarda quloqlarni tugatish shiori ostida o'rtahol, hatto ki kambag'al dehqon xo'jaliklariga nisbatan ham

zulm o'tkazildi. 1929-yil oktabriga qadar respublikadagi dehqon xo'jaliklarining 3,4 foizi kolxozlarga kirgani holda, 1930-yil martiga kelganda dehqon xo'jaliklarining 47 foizi kolxozlashtirilgan edi.

Ko'pgina joylarda aholi jamoalashtirish xavfidan qo'rqib o'z chorva mollarini keragidan ziyod so'yib yubordi. Bu esa chorvachilik uchun koni zarar bo'ldi. Masalan, birgina qoramollar tuyog'ining soni 1930-yilda respublika bo'yicha 60 mingdan ziyodroqqa kamayib ketdi. Jamoalashtirish ishidagi shoshma-shosharlik, joylardagi aniq shart-sharoitlar bilan hisoblashmaslik, milliy hududlarning o'ziga xos xususiyatlari, aholisining milliy an'analari, udumlarini e'tiborga olmaslik, ularni pisand qilmaslik oxir-oqibatda bundan ham ko'ngilsizroq va noxushroq holatlarning yuz berishiga sabab bo'ldi.

Ko'p qishloq tumanlarida hokimiyat organlarining zo'ravonligi, o'zboshimchaligiga qarshi aholi keskin norozilik bildirib, turli harakatlar uyushtirishga majbur bo'ldi. 1929—1930-yillarda dehqonlarning sovet tuzumiga nisbatan ommaviy norozilik harakatlarida faqat Qashqadaryo okrugidan 14 ming nafar kishi qatnashgan. Ma'lumotlarda qayd etilishicha, bunday ommaviy norozilik harakatlari shu davrda respublika bo'yicha 240 marta sodir bo'lgan. Eng achinarlisi shuki, ko'plab oddiy dehqon xo'jaliklari arzimagan sabablar bilan yoxud birgina jamoa xo'jaligiga kirishga rag'bat bildirmaganligi vajidan bor-budidan mahrum etilib, uy-joyi, mol-mulki tortib olinib, quloq qilinuvchilar ro'yxatiga tirkab yuborilavergan.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda jamoalashtirish boshlarida O'zbekistonda shartli ravishda quloq xo'jaligiga kiritish mumkin bo'lgan xo'jaliklarning salmog'i aslini olganda umumiy dehqon xo'jaliklarining 5 foizidan kamrog'ini tashkil etardi, xolos. Biroq ommaviy jamoalashtirish boshlanishi bilan 15 foizdan ortiq xo'jaliklar quloqlashtirishga duchor bo'ldi, faqat 1930-yilning o'zida respublikada boy va quloq xo'jaliklar toifasiga kiritilgan 2648 ta o'rtahol dehqon xo'jaliklari tugatilgan edi.

Respublikaning o'ziga to'q, bozorga tovar-g'alla

yetishtirib berishga qodir bo'lgan son-sanoqsiz dehqon xo'jaliklari bor narsasidan mahrum bo'lib, haqsiz-huquqsiz holda o'z oila a'zolari, qarindosh-urug'lari bilan uzoq hududlarga (Sibir, Ukraina, Qozog'iston) yoki yangi o'zlashtirilayotgan cho'lli, to'qayzor, qamishzor yerlarga badarg'a qilindilar. Ularning ko'plari bu kimsasiz, huvillagan joylarning og'ir shart-sharoitlariga dosh berolmay, turli kasalliklarga chalinib, ochlik, muhtojlik azobidan bevaqt ko'z yumib ketdilar.

Endi quloq qilingan va o'z joylaridan ko'chirilgan xo'jaliklarning tortgan azob-uqubatlari haqida bir kichik lavha: Samarqand viloyatining Miyonko'l oroliga bir necha ming quloq qilinganlar oilasi olib kelinib joylashtirilgandi. Botqoqli va ko'llardan iborat to'qayzor, qamishzor yerlar ularning kuchi bilan quritilib, o'zlashtirilgach, paxta, sholi ekiladi. Qamishdan to'qilgan lagerlarda yashovchi «quloq» oilalari hayvonchalik qadr etilmasdi. Ichki ishlar xodimlari ularni xo'rlar, ovoz chiqarsa otib tashlar, beayov ishlatardi. Miyonko'llik keksalarning eslashicha, ularning ko'plari mashaqqatli mehnat, ochlik, kasallik azobidan, soqchilar zulmidan o'lib ketdilar. Bu yerda yuzlab, minglab o'lim topgan kishilar bir joyga kafansiz, diniy rasm-rusumlarsiz ko'mib yuborilgan.

Ming-minglab qishloq oilalari bunday xavf-xatarining bo'lishini oldindan his qilib, o'z kindik qonlari to'kilgan muqaddas zaminni tark etib, uzoq begona yurtlarga bosh olib ketishga majbur bo'ldilar. Ularning ko'plari uzoq yillar xorijiy ellarda umrguzaronlik qilib, ona yurt sog'inchi bilan, unga talpinib yashab o'tdilar. Faqat O'zbekiston milliy mustaqillikka erishgandan so'nggina orzu-armonlari ushalib, yangidan Vataning mo'tabar tuprog'ini tavof qilish baxtiga musharraf bo'ldilar.

Sovet hokimiyati, uning tegishli mas'ul organlari, mahalliy partiya, sovet va xo'jalik tashkilotlari butun choralar bilan qishloqda jamoalashtirish siyosatini qat'iyat bilan o'tkazishda davom etdi. Garchi partiya Markazqo'mining 1930-yil 5-yanvardagi qaroriga binoan O'zbekistonda dehqon xo'jaliklarini yoppasiga jamoalashtirish ishlarini 1933-yil boshlariga qadar

tugallash muddati belgilangan bo'lsa-da, mahalliy rahbarlar uni muddatidan avval bajarish uchun shiddat ko'rsatdilar. Buni quyidagi raqamlar ko'rsatkichida ham yaqqol ko'rish mumkin. Agar 1930-yil iyunida respublikada 6124 ta kolxoz tuzilgan, ularga jalb qilinganlar dehqon xo'jaliklarining 27,1 foizini tashkil etgan bo'lsa, shu yilning oxiriga borib 37 foizga, 1931-yil dekabrda esa 68,2 foizga yetdi.

Ayni paytda dehqon xo'jaliklarini majburiy quloq qilish, boshqa joylarga surgun qilish ishlari avj oldirildi. Quloqlashtirish oqibatida 60 mingdan ortiq kishi O'zbekistondan Ukraina, Sibir va Shimoliy Kavkazga surgun qilindi.

Ma'muriy tazyiq, oshkora zo'rvonlik, iqtisodiy terror usullari va shu kabi ta'sir choralarining uzluksiz qo'llanilishi orqasida kolxoz qurilishi sezilarli sur'atlarda rivojlantirib borildi. 1932-yil oxiriga kelib umuman O'zbekistonda jamoalashtirilgan xo'jaliklar barcha dehqon xo'jaliklarining 81,7 foizini birlashtirgan edi. 800 ming dehqon xo'jaliklari negizida 9734 ta kolxoz va 94 ta sovxoz tashkil etilgandi.

Bu davrga kelib paxtachilik tumanlarida jamoalashtirish asosan tugallangan, ularning ekin maydonlari 1929-yildagi 530 ming gektardan 1932-yilga kelib 928 ming gektarga ko'paygan edi. Shu tariqa, «SSSRning paxta mustaqilligini ta'minlash»da O'zbekiston o'z salmoqli ulushini qo'shib bormoqda edi. Masalan, 1935-yilda O'zbekistonda 1 mln tonna paxta tayyorlangan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1939-yilda 1,5 mln tonnani, 1941-yilga kelib esa 1656200 tonnani tashkil etdi. Bu SSSR bo'yicha tayyorlangan paxtaning 60 foizidan ziyodrog'ini tashkil qilardi. 30-yillar davomida respublika qishloq xo'jaligi tizimida paxta yakkahokimligi mustahkam o'rin egallab bordi. Jumladan, agar 1933-yilda paxta mahsuloti respublika yetishtirib tayyorlab beradigan qishloq xo'jalik mahsulotlari umumiy hajmining 81,5 foizini tashkil etgan bo'lsa, 1937-yilga kelib bu raqam ko'rsatkichi 93,4 foizga yetdi. Qishloqni jamoalashtirish jarayoni ham o'zining yakunlovchi pal-lasiga kirib bordi. Chunonchi, 1937-yilda dehqon xo'jaliklarining jamoalashtirish darajasi 95 foizga yet-

gan bo'lsa, 1939-yilda u 99,2 foizni tashkil etdi. Ommaviy jamoalashtirish jarayonida O'zbekiston bo'yicha ming-minglab kishi quloqlarga mansublikda ayblanib qatag'on qilindi. Shunday qilib, «quloqlarni sinf sifatida tugatish» masalasi uzil-kesil hal qilindi.

**Jamoa xo'jaliklarining
moddiy-texnik bazasini
mustahkamlash va suv
inshootlari qurilishi**

O'zbekistonda dehqon xo'jaliklarini ommaviy tarzda jamoalashtirish ishlari ayni chog'da yangi xo'jaliklarga moddiy-texnik baza bo'lib xizmat qiladigan mashina-traktor stansiyalari (MTS)ni tashkil etish bilan uzviy bog'liq holda olib borildi. O'zbekistonda dastlabki mashina-traktor stansiyasi 1929-yilda Andijon okrugining Asaka tumanida tuzilgan, u yangidan tashkil etilgan jamoa xo'jaliklariga texnik yordam ko'rsatgan edi. Asta-sekin ularning soni ortib bordi. 1931-yilga kelib MTS lar 48 ta qishloq tumanlarida tashkil etilib, qishloq ahlining dala yumushlariga xizmat ko'rsatdi.

MTS larning yirik dehqon xo'jaliklariga nafi katta bo'lganligidan ularning safi respublikada to'xtovsiz ortib bordi. Jumladan, 1937-yilda ularning soni 163 taga, 1941-yilga kelganda esa 189 taga yetdi. Garchand yirik jamoa yerlarini ishlab berish, qo'l mehnatini yengillashtirish, qishloqqa texnika olib kirish, texnika ilmidan qishloq mehnatkashlarini xabardor qilish, ma'lumotini oshirishda MTS lar muhim rol o'ynagan bo'lsa-da, biroq bu narsa jamoa xo'jaliklarining davlatga tobeligini yanada kuchaytirdi. Buning asosiy sabablaridan biri shundaki, yirik ishlab chiqarish vositalari MTS lar orqali tobora davlat qo'lida to'plana bordi. MTS lar jamoa yerlarini natural haq evaziga ishlab berar, bu haqning miqdori esa yuqoridan, davlat organlari tomonidan belgilanardi.

MTS larning tashkil etilishi va xizmat ko'rsata boshlashi bilan qishloqda shartli ravishda bo'lsa-da, «ikkita xo'jayin» — kolxozlar va MTS lar qaror topdi. Garchand har ikkalasining asosiy jilovi davlat qo'lida bo'lsa-da, biroq ularning biri texnika uchun va ikkinchisi qishloq xo'jaligi sohasining qolgan boshqa ishlari uchun mas'ul hisoblanardi. Shunday bo'lsa-da, bunday «ikki hokimiyatchilik»ning yuzaga kelishi orqasi-

da ishlab chiqarishni tashkil etish va texnika xizmatidan foydalanishda xo'jasizlik kelib chiqdi, ekinlar hosildorligi, chorvachilik mahsuldorligi uchun mas'uliyatni jamoa a'zolari ham, MTS xodimlari ham o'z zimmalariga olmadilar. Bu esa katta va keraksiz xarajatlarga sabab bo'ldi.

O'zbekiston qishloq xo'jaligi azal-azaldan sun'iy sug'orish tizimiga asoslanib kelganligidan bu sohani rivojlantirib borish asosiy vazifalar sirasiga kiradi. Respublikaning asosiy ekin turi hisoblangan paxtachilikni o'stirish ham ko'p jihatdan shunga bog'liq edi. Bu esa o'lka hududlarida sug'orish inshootlari, chunonchi, kanallar, kollektorlar, suv havzalari, suv omborlarini ko'plab barpo etishni taqozo etardi.

O'zbekiston qishloq xo'jaligi va ayniqsa uning yetakchi tarmog'i — paxtachilik sohasining tezkor rivojlanishidan manfaatdor bo'lgan sovet hukumati ham boshdan boshlab respublikada irrigatsiya va melioratsiya tizimini yaxshilash va takomillashtirishga jiddiy e'tibor berib bordi.

Shu maqsadda 1922-yildayoq respublikada irrigatsiya tizimini qayta tiklash va yanada rivojlantirishning asosiy vazifalari belgilab berildi. Xususan, O'zbekiston hukumati tarkibida suv va qishloq xo'jaligi xalq komissarligi, uning huzurida esa suv xo'jaligi bosh boshqarmasi, joylarda viloyat, tuman, uchastka suv xo'jaligi bo'limlari tashkil etildi. Ularga davlat yordami ko'rsatib borildi. Jumladan, 1922-yilda irrigatsiya ishlariga 6 mln oltin rubl hisobida mablag' ajratildi. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad sug'oriladigan yerlarni 2 yil ichida 2 mln desyatinaga yetkazish edi. Joylarda suv inshootlari qurilishi avj oldirib yuborildi. Yangi kanallar, ariqlar qurildi. Ko'plab yangi yerlar o'zlashtirildi. Natijada 1924-yilga kelib sug'oriladigan yerlar miqdori 2,4 mln desyatinaga, shu jumladan, paxta ekiladigan maydon esa 500 ming desyatinaga yetkazildi.

Bu ishlar O'zbekiston SSR tuzilgach, yanada avj oldirib yuborildi. Urushgacha bo'lgan davrda respublikada Darg'om, Narpay, Savay, Dalvarzin, Log'on, Katta Farg'ona kanallari kabi ko'plab suv inshootlari qurildi. Chirchiq—Ohangaron vodiylarida, Zarafshon

daryosi havzasida, shuningdek, Qashqadaryo va Surxondaryoda irrigatsiya tarmoqlari ancha yaxshilandi. 1929—1933-yillarda bu sohaga 234,9 mln rubl sarflandi.

1939-yilda O'zbekiston KP(b) Markaziy Qo'mitasi va respublika hukumati hashar yo'li bilan Katta Farg'ona kanalini qurish to'g'risida qaror qabul qildi. O'sha yilning 1-avgustidan 160 ming kolxozchi kanal qurilishini boshlab yubordi. Ularning 70 mingdan ziyodrog'ini yoshlar tashkil etardi. Uzunligi 270 kilometr bo'lgan bu kanal asosan qo'l mehnati bilan 45 kun ichida qurildi. Unda 46 ta yirik, 274 ta kichik gidrotexnik inshootlar, 5 ta temiryo'l va 40 ta avtomobil yo'llari ko'priklari barpo etildi. Holbuki, bunday kanalni barpo etish uchun Rossiya mustamlakachiligi davrida 6—8 yil, sovet davrida esa 6—8 oy kerak bo'ladi, deyilgan edi. Amalda esa u xalq qudrati, azm-u qarori bilan atigi 1,5 oyda bunyod etildi. Bu o'zbek xalqiga xos bo'lgan hashar usulidagi shonli, fidokor mehnatning samaralari edi.

Hatto Markaz matbuotining bosh organi — «Правда»ning 1939-yil 13-dekabrdagi bosh maqolasida shunday satrlar bitilgan edi: «Shu yilning yoz faslida uzoq Farg'onada qilingan ish, o'n minglab o'zbek va tojik kolxozchilarining bir yarim oy mobaynida kanal qaziganligi butun xalqni juda quvontirdi. Ijodkor xalq, yaratuvchi xalq farg'onalik kolxozchilarning tajribasida... mehnatdagi shunday bir yangilikni ko'rib oldiki, bu yangilik kelajak sari qilinayotgan harakat sur'atlarini jadallashtiradi».

Katta Farg'ona kanali Farg'ona vodiysining asosiy qon tomiri bo'lib qoldi. Vodiya 60 ming gektar bo'z, cho'lli yerlar o'zlashtirilib, 500 ming gektar yerni suv bilan ta'minlash imkoniyati yaratildi. Shuningdek, Ikkinchi jahon urushidan oldingi yillarda Shimoliy va Janubiy Farg'ona kanallari, Toshkent kanali, Kampirovot suv to'g'oni, Qoraqalpog'istonda Qizketgan kanali, sig'imi 1 mln kub metr bo'lgan Kattaqo'rg'on suv ombori va ko'plab boshqa suv inshootlari barpo etildi hamda foydalanishga topshirildi. Buning natijasida 1937—1940-yillarda respublikada sug'oriladi-

gan yer maydonlari qo'shimcha ravishda 200 ming gektarga ko'paydi Respublikada yangi paxtachilik tumanlari va ko'plab jamoa xo'jaliklari tashkil etildi. Ularning ekin maydonlarining hosildorligi yil sayin ortib bordi.


Shunday qilib, sovet hokimiyati va kommunistik partiya qishloqda jamoalashtirish siyosatini olib borishda qishloq ahliga nisbatan nechog'lik zulm va zug'um o'tkazmasin hamda ne-ne og'ir sinovlarga duchor etmasin, biroq ular xalq irodasini, uning shiddati, azm-u qarorini so'ndira olmadi, o'zbek xalq fidoyilik bilan mehnat qildi.

XULOSA


Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki har qanday mustamlakachilikni hech qanday voqea hodisalar bilan oqlab bo'lmaydi. Garchi mustamlakachilar tomonidan amalga oshirilgan ishlar ijobiy holatdek tuyulsa-da aslida uning zahirida yurt boyligini talash, imkon qadar o'z manfaatlariga bo'ysundirish va ko'proq foyda olishga intilish yotadi. Tarix shundan guvohlik beradiki har qanday bosqinchi davlat o'zi istilo etgan hududlarni ko'roq talab, yuqori foyda olishga intilib mahalliy aholining boshiga og'ir kunlarni solgan. Shu o'rinda sovet mustamlakachiligi davrida xalqimiz boshiga tushgan og'ir musibatlarni va dard alamlarni hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi. Shunday bo'lsa-da ota-bobolarimiz qanchalik og'ir kunlarni boshidan kechirmasalar, istibdod kishanlari qanchalik qo'llarini bog'lamasalar baribir hayotga bo'lgan intilishni, yorug' kunlarga bo'lgan ishonchni yo'qotmaganlar. Mustabid sovet tuzumi davrida amalga oshirilgan ishlarda mehnatsevar xalqimizning bilak kuchi va intellektual salohiyati hal qiluvchi rol o'ynadi. Va bunda xalqimiz sovet tuzumi hukmdorlariga yoqish uchun emas balki yurtimiz obodonchiligi, uning ravnaqi hamda yorug' kunlar uchun mehnat qildilar. XX asrning 20-30 yillarida O'zbekistonda amalga oshirilgan yer-suv islohatlari davomida yo'l qo'yilgan kamchiliklar, bedodliklar, zulm va azob uqubatlarga qaramasdan xalqimiz fidokorona mehnat qildilar va o'zining mislsiz matonat hamda sabr-toqat egasi ekanligini namoyish etdilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati


1. “ O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida” darslik o'quv qo'llanma 2-qism Toshkent-2000
2. “O'zbekiston tarixi” darslik o'quv qo'llanma to'ldirilgan to'rtinchi nashri Toshkent-2009
3. “O'ZBEKISTONDA YER-SUV MUNOSABATLARITARIXI (QADIMGI DAVRDAN HOZIRGI KUNGACHA)”
mutaxassislik fanidan 1-kurs magistrleri uchun **MA'RUZA MATNI**
4. Mavzuga oid maqolalar muallif dots. R. Xoliqulov



Бой хўжалиги чорва моллари ва ишчи хайвонларини мусодара қилиш.
Фарғона, 1925 йил.



Мажбурий ташкил қилинган жамоа хўжалиқларида ер хайдаш.
Хива, 1930 йил.



Ўзбек халқи Катта Фарғона канали қурилишида. 1939 йил август-сентябр.